

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI***

FILOLOGIYA FAKULTETI

**O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi
IV "C" guruh talabasi
Yo'ldasheva Gulchehra Sirojiddinovnaning**

"Fuzuliy va o'zbek adabiyoti" mavzusidagi

REFERAT

Ilmiy rahbar:

dotsent Zohidov L

Qo'qon - 2011 yil

I bob. Fuzuliy va uning adabiy merosi.....

1.1. Fuzuliyning hayoti va ijodiy faoliyati.....

1.2. Fuzuliy lirikasining janr xususiyatlari va mavzu doirasi....

1.3. Fuzuliyning badiiy mahorati.....

1.4. “Layli va Majnun” dostonida ishq talqini.....

II bob. Fuzuliy va adabiy ta’sir masalasi.....

2.1. Fuzuliyning o’zbek adabiyotiga ta’siri.....

2.2. Fuzuliy va Qo’qon adabiy muhiti.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....

I bob. Fuzuliy va uning adabiy merosi.

1.1. Fuzuliyning hayoti va ijodiy faoliyati.

Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy SHarqning eng mashhur shoirlaridandir. U 1498 yilda Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Karbalo ham ancha mashhur yurt. Fuzuliy zamonasida mana shu dashti kabirda Karbalo degan shahar bo'lgan va buyuk shoir mana shu erda ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Bu shahar bilan shoir o'sib ulg'aygan Bag'dod orasi 85 chaqirim. Karbalo va Bag'dod atrofida ozarbayjonlar ko'plab yashaganlar. Hajga borib-kelishda qolib ketuvchilar ham bo'lgan. Fuzuliyning otasi Sulaymonning bir vaqtlar Ozarbayjonning Arash degan joyidan Karbaloga ko'chib borib qolganini naql qiladilar.

YOsh Muhammad shoir sifatida Bag'dodda voyaga etdi. Uning Fuzuliy taxallusi yoniga Bag'dodiy kuniyasining qo'shilib kelishi shundan.

SHoir taxallusining o'zagi fazl (fazilat)dan, fuzul — fozil, fazilat egasi ma'nolarini beradi. Bo'lajak shoir maktab, madrasada qunt-ishtiyoq bilan o'qigan. Uning ona tilidan tashqari arab, fors tillarini ham mukammal o'rganib, ularda ajoyib she'rlar bitishi, tabiiy fanlardan chuqur xabardorli bunga dalil.

Bag'dodda ham barcha islom shaharlaridaga kabi she'r va shoirning martabasi baland bo'lgan. Fuzuliy yozadi:

Turku Arabu Ajamda ayyom,
Har shoira vermish edi bir kom.
SHod etmish edi Abunuvosi,
Xorun xalifaning atosi.
Bo'lmishdi safoyi dil Nizomiy,
SHirvonshaha dushub kiromi.
O'lmishdi Navoiyi suxandon,
Manzuri shahanshoi Xuroson.

SHoir uch til — turk, arab, fors tillarining shuhratini o'z asarlari bilan olamga yoygan uch buyuk dahoni tilga oladi. Bular — Abu Nuvos, Nizomiy, Navoiy. Va ular o'zlariniig buyuk zamondoshlari Xorun ar-Rashid, SHirvonshoh, Xuroson shahanshohi (Husayn Boyqaro) tomonidan izzat va sharaf topdilar. Bu shoirlar Fuzuliyga butun umri davomida yo'ldi yulduz bo'lib qoldilar. Ayniqsa, Alisher Navoiyga juda katta ixlos va muhabbat bilan qaradi. U yashagan zamonda Navoiyning ovozasi birgina Xurosonu Movarounnahrda emas, Arabu Ajamda ham baland edi. Qolaversa, uning ijod yo'lida ham Navoiy bilan bir qadar o'xshashlik bor. Masalan, u ham o'z ijodini forsiyda boshlagan, ona tiliga so'ng o'tgan. SHunchaki rasm uchun emas, ona tilida ijod etish zaruratini anglab o'tgan. Fuzuliy o'z turkiy devoniga yozgan «Debocha»sida o'z tilida she'r yozmaslik yoki yoza olmaslikni o'sha shoir tab'ining «qobili qusur»i, «iste'dodi kamoli»ga «rahna» hisoblaydi.

Nihoyat, u ham ixlos qo'ygan ustozlari singari zamonasining saltanat egalaridan izzat va e'tibor topgan. Masalan, Ozarbayjon hukmdori Ismoil I Safaviy va Turkiya sultoni Sulaymon I Qonuniylar uni moddiy ta'minlab turganlari ma'lum. Hatto unga nafaqa tayin etilganini naql qiladilar.

Fuzuliyning shoir sifatida shakllanishida maktab-madrasa muhiti, asriy adabiy-madaniy an'analar, xususan, fan va madaniyatga asrlar osha maskan bo'lib kelgan Bag'dod hayoti muhim rol o'ynagan. SHoir o'z asarlaridan biriga yozgan muqaddimada xotirasida shirin tushdek muhrlanib qolgan maktab yillarini intiq bir entikish bilan tilga oladi. Bihishtga o'xshagan majlislarda faqat oshiqona she'rlar, g'azallar o'qilganini eslaydi.

Darvoqe, o'z ustozlari Habibiyni qizini yaxshi ko'rib qolganini, unga atab she'rlar yozganini naql qiladilar.

CHamasi, shoir hayoti davomida sayohatlarda ko'p bo'lmagan. «Umiddurki,— deb yozadi Fuzuliy,— arbobi fasohat va ashobi balog'at mushohada va mutolaa qildikda mansha' (asli) va mavlidim (tug'ilgan joyim) Iroqi Arab o'lub, tamomi umrda g'ayr mamlakatlarda sayohat qilmodigimdan voqif o'ldiqda, bu illati

mo'jibi suquti e'tibor bilmayalar. Va mahalli maqomima ko'ra rutbai iste'dodima haqorat ila nazar qilmayalar. Zero, e'tibori Vatan iste'dodi zota ta'sir etmaz». Fuzuliyning o'g'li Fazliy taxallusi bilan she'rlar yozganini va bobosining yurti Arashga ko'chib kelganini naql qiladilar. Fuzuliy umri davomida ko'plab asarlar yozgan. She'rlarini to'plab, devon tartib bergan, «Layli va Majnun», «Haft (etti) jom», «Anisul qalb» (Qalb do'sti), «Matla' ul-e'tiqod» (E'tiqod boshlanmasi), «Rindu zohid» kabi falsafiy dostonlar, «Sihhat va maraz», «Bangu Boda» (Nasha va may), «Suhbat ul-asmor» (Mevalar suhbat) kabi majoziy asarlar bitgan..

Buyuk shoir nasr bilan ham shug'ullangan. «SHikoyatnoma» degan asar yozib, turkiy proza taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan edi.

Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy 1556 yilda vabo kasalidan vafot etgan.

1.2. Fuzuliy lirikasining janr xususiyatlari va mavzu doirasi.

Fuzuliy ijodi boy va rang-barang bo'lib, ko'lami va qudratiga ko'ra birgina ozarbayjon adabiyoti emas, balki YAqin va O'rta SHarq xalqlari adabiyotida butun bir bosqichni tashkil qiladi. XVI asr turkiy she'riyatida unga qiyos etgulik ikkinchi shoirni topib bo'lmaydi. U, avvalo, zabardast lirik shoirdir. YUzlab ehtirosli g'azallar yozgan, devonlar tuzgan, turkiy she'rning buyuk Navoiydan keyin qadru e'tiborini yuksak sharaf va mas'uliyat bilan himoya eta olgan shoirdir.

SHoir lirikaning xilma-xil janrlarida barakali ijod etdi. Uning devonidan g'azal, murabba', muxammas, musaddas, tarji'band, tarkibband, qit'a va ruboiy janridagi she'rlar o'rin olgan. Fuzuliy ko'plab sharq she'riyati ijodkorlari singari g'azalga alohida ixlos va muhabbat bilan qaradi, uni iste'dodga me'zon bildi.

Fuzuliy g'azal janrini kamolotga etkazgan buyuk san'atkordir. Navoiydan so'ng bu janrda eng ko'p, eng go'zal, eng nafis va eng ohangdor g'azallar yaratgan shoir Fuzuliydir. Fuzuliy — turkiy tillarda so'zlashuvchi barcha xalqlarning mushtarak sharafi, ularning mushtarak Hofiz SHeroziysidir.

Fuzuliy o'z ijodining ibtidosidan boshlab, g'azal janriga alohida ahamiyat beradi, bu janrni boshqalardan yuqori qo'yadi. CHunki:

G'azaldir safo baxshi ahli nazar,

G'azaldir guli gulistoni hunar.

G'izoli g'azal saydi oson dagil,

G'azal munkiri ahli irfon dagil.

G'azal bildirar shoiring qudratin,

G'azal orturar noziming shuhratin.

G'azal de, ki mashhuri davron o'la,

O'qumoqda, yozmoqda oson o'la.

G'azal janriga bunday yuksak baho bergan Fuzuliyning g'azallari kanday? Fuzuliyning SHarq lirikasining otasi Hofiz SHeroziy darajasiga ko'targan sir nimada?

Bu so'roqqa to'g'ri javob berish uchun yana Fuzuliyning o'ziga murojaat qilmoq kerak. Fuzuliy o'z kulliyotiga yozgan debochasida: "SHoirligim muqarrar bo'lgach, umrimning bir qismini sarf etib, turli ilmlarni o'rgandim",— deydi. CHunki Fuzuliyning to'g'ri e'tiqodicha: «Ilmsiz she'r asosi yo'q devor kabi o'lur va asossiz devor g'oyatda bee'tibor o'lur».² Ko'rinib turibdiki, Fuzuliy o'z g'azallariga ilm-ma'rifatdan mustahkam «asos» — poydevor qurgan. SHuning uchun oradan to'rt yuz yil o'tishiga qaramay, bu she'rlar hamon o'quvchini maftun etadi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, shoir olim, faylasuf bo'lmog'i kerak.

Fuzuliy g'azallaridagi hayotiylik, yashovchanlikniig yana bir siri — shoirning hamma misralarii bir tekisda qalb harorati bilan isita biliishda. Agar mana shu xislat, mana shu fazilat bo'lmasa, ilm va aql kuchi bilan yaxshi she'r yaratib bo'lmaydi. Fuzuliyda shoirlik qobiliyati, olim va faylasufning mushohada kuchi muvozi ravishda takomil topgan. Buning ustiga shoir butun hayoti davomida oliy

bir go'zallik maftunidir, mana shu go'zallikni qalb ko'zi bilan ko'rib, uni so'z bilan suratga tushirmoq istagi shoirning badiiy kamol topishiga sabab bo'lgan asosiy omildir Fuzuliy g'azallari — qalbning sadosidir. CHin go'zallik shoirning ko'z o'ngida sohibjamol qiz siymosida namoyon bo'ladn. Oshiq shoir unga etolmay, uning hajrida kuyadi, iztirob chekadi:

*Azal kotiblari ushshoq baxtin qora yozmishlar,
Bu mazmun ila xat ul safxai ruxsora yozmishlar.
Muharrirlar yozonda har kima olamda bir ro'zi,
Banga har kun dili sadporadan bir pora yozmishlar.¹*

deb, afsuslanadi. Lekin bu jafokor sohibjamol lirik qahramonga nisbatan loqaydlikda, muruvvatsizlikda davom etadi. Ana shunda shoir to'lib-to'lib, butun vujudi bilan yonib kuylaydi. Fuzuliy g'azallarini o'qir ekansiz, shoir she'riyatining kamoloti uchun ma'shuqani muruvvatsizlikda ayblagingiz kelmaydi. Darhaqiqat, lirik qahramon mahbubasi og'ushida farog'atda bo'lganda, mana bunday bebaho g'azallar bunyodga kelmasdi:

*YOndi jonim hajr ila vasli ruhi yor istaram,
Dardmandi furqatam darmoni diydor istaram,
Bulbuli zoram, dagil behuda, afg'on etdigim,
Qolmisham nolon qafas qaydida, gulzor istaram.²*

Fuzuliyning:

SHvfoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o'landan so'r

matla'li g'azali uning eng mashhur she'rlaridan biridir.

Darhaqiqat, vasl — shifo, hajr bemorlikdir. SHifoning qadrini bemordan, zilol suvning zavq-shavqini tashna odamdan so'ramoq kerak.

Ushbu she'r ham an'anaviy yor ta'rifi va oshiq holi tasviriga bag'ishlangan. Ma'no va ifodadagi ko'p qavatlilik bu she'rda ham ayon ko'rinib turadi.

Ikkinchi baytda o'qiymiz:

Labing sirrin gelub guftora bandan o'zgan so'rma,

Bu pinhon nuqtani bir voqifi asror o'landan so'r.

Oddiy o'quvchi «labing sirini bilishni istasang, mendan boshqadan so'rama. Bu sirni bilgandan — mendan so'ray qol», degan jo'n fikrni anglaydi, xolos. Mumtoz adabiyot sirlari bilan oshno bo'lgan kishi uchun esa u butun bir olam. Nega shoir o'zini «voqifi asror» deyapti? Nega «guftora», «so'r» so'zlari ishlatilmoqda? Bularning har birining bir emas, bir necha izohi bor. Va deyarli hammasi lab (og'iz)ning an'anaviy ta'rif-tavsifi bilan bog'lanadi. Jumladan, «sir»ligi, «pinhon»ligi tor va kichikligiga ishora (og'iz kichikligi go'zallik ramzi bo'lib kelgan). «Voqifi asror»lik (sirdan voqif bo'lish) o'sha «pinhon» labning ochilgani (gapirgani)ga, va'daga ishoradir.

G'azal oxirida shoir mavzuni mayga buradi, o'zini xarobot ahli, deb tanishtiradi va g'ofil zohidga qarshi qo'yadi. Bu aslida shoirning ishq haqidagi qarashlariga zid emas. Ishqning o'zi ham may kabidir. Ayniqsa, ishq ilohiy.

Fuzuliy yozadi:

Ishqdir ul nashbai komilkim, andandur mudom,

Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado.

Fuzuliy shunday ulug' san'atkor, shunday fusunkor shoirki, uni o'qirkansan beixtiyor sehrlanib, lol bo'lasan kishi. Musiqa sadolari ostida qalbimizda tug'yon urgan ruhiy holatni so'z bilan ifoda etib bo'lmagandek, Fuzuliy g'azallari baxsh etadigan ma'naviy halovatni ham so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydi.

SHoirning lirik she'rlari boshdan-oyoq ilohiy ishq haqidadir, deyish bir tomonlamalikdir. U, yuqorida aytganimizdek, ilohiy va dunyoviy muhabbatni babbaravar kuylagan shoirdir. Bu erda mantiqsizlik yo'q. Hamonki, u borliqni Ollohning tazoxiri hisoblar ekan, bu falsafa insonni ham ilohiy bilar edi. Boshqacha aytganda, insonning dunyoviylikida ilohiylik bor edi. SHunga ko'ra

shoirning lirik she'rlarida ilohiy ishq bilan bir qatorda dunyoviy muhabbat tasviri degan masalani ham qo'yish va o'rganish mumkin.

Alisher Navoiy «Mahbubul-qulub»da ishqni ikkiga — majoziy (insoniy) va ilohiyga ajratganligi adabiyot muhiblariga ma'lum. Buyuk shoir bu ikki ishqni o'zida birdek jo eta olgan bir toifaga diqqatni qaratadi va bunga misol sifatida Hofiz SHeroziy bilan Abdurahmon Jomiyi tilga oladi. Fuzuliy ham mana shu siraga mansubdir. U ham mashhur mutasavviflar singari atrof borliqni ollohning tazohiri (namoyon bo'lish shakli) deb biladi. Tabiat va uning gultoji — insonda Olloh jamolining jilvalarini ko'radi. Insonning yaratilishidan maqsad Olloh jamoliga qovushmoqdir — o'zlikka qaytmokdir, deb hisoblaydi va bularning barchasi fano (yo'qlikka erishish) orqali amalga oshadi, degal nuqtai nazarda turadi. Lekin unga qanday erishiladi? Bu erda erkinlikka imkon bor. Bu erkinlik shundan iboratki, inson foniylikka hol orqali ham erishishi mumkin. YA'ni u o'zining ollohga mansubligini dil-dilidan his etadi. Va vaslga shu orqali erishadi. Lekin bu g'oyat qiyin ishdur. Buning uchun oshiq juda ko'p riyozatlar chekkan bo'lishi va, eng muhimi, har jihatdan kamolotga etishi lozim. Hatto bular ham kifoya qilmaydi. Ollohning inoyati ham zarur. Xullas, bu shunday dushvor yuk.

SHoirning tarkibbandlaridan biri shunday boshlanadi:

Banam ki, qofila solor karvoni g'amam,
Musofiri rahi sahroyi mehnatu alamam.
Haqir boqma bango, kimsadan sog'inma kamam,
Faqiri podshoho, gadoyi muhtashamam.
Sirishkim taxti ravondur bangaou oh, alam,
Jafovu javr — mulozim, balovu dard — hasham¹.

(Men g'am karvonining karvonboshisi, mehnat va alam sahrosining musofir yo'lovchisiman. Lekin sen menga tahqirona boqma, negaki men o'zimni hech kimdan kam ko'rmayman. Men faqir bo'lganda ham podshohsifat faqirman,

¹ Fuzuliy. Devon. Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. —B.225.

muhtasham gadoman. Taxti ravonim oh va alamlardan to'kilgan ko'z yoshlarimdir. Boshimga yoqqan jafoyu jabr — mulozim, baloyu dard esa hashamdir.)

9 bandlik tarkibband shunday tugallanadi:

Fuzuliy ayladiging ahdinga vafo qilg'il,
Etar shikoyat edub, sharhi mojaro qilg'il,
Vujuding hadafi novaki balo qilg'il,
Qamu jafolara sabr aylayub, duo qilg'il,
Kim o'la do'st rizosi hamin sango hosil,
Rizoi do'stlar asli tamatto'', ey g'ofil!

«Rizoi do'st» ollohning rizosidir. Barcha jafolarga sabr aylashgina emas, ularga ko'ksingni tutib bardosh berganingdagina «do'st rizosi hosil» bo'ladi.

Fuzuliyda mutoyibaga moyillik ham bor. U goho fojeiy manzaralardan juda engil chiqib ketadi. Bu holni uning juda ko'p she'rlarida uchratish mumkin. Masalan, Fuzuliyning «Parishon holing o'ldim, so'rmading holi parishonim» deb boshlanadigan murabba' (to'rtlik) janrida yozilgan mashhur bir she'ri bor. Dastlabki misralardanoq chuqur dard, qayg'uli ohang kitobxonni o'z og'ushiga oladi. Ma'shuqadan shikoyat, iltijo va o'tinchlar she'rdagi vazminlikni tarang ushlab turadi. She'ning so'nggi bandidagina biroz engil tortasiz. Eshik ochilib qizib ketgan xonaga engil shabada kirgandek bo'ladi:

Fuzuliy, shevai ehsoning istar bir gadoyingdur,
Dirildiqcha saning kuying, yo'lingda xoki poyingdur.
Gerak o'ldir, gerak quv: hukm-hukming, roy-royingdur,
Go'zim, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim.

Bu mashhur murabba'ga ko'plab ijodkorlar taxmis bog'laganlar.

Fuzuliy shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy barkamol she'rlari bilan o'z iste'dodini va mahoratini namoyon qila olgan yuksak iste'dod egasi edi. U haqli ravishda o'z zamonasidagi xalq e'tirofiga sazovor bo'lgan, o'z davri shoirlarining

etakchisi darajasidagi ijodkor edi. Uning ijodi an'anaviy mavzularni ishlash, ularning yangi qirralarini ochish va ohorli tashbihu timsollar bilan boyitishda o'z davri shoirlaridan bir pog'ona yuqori turadi. Bu o'z davrida ham, undan keyin ham e'tirof etilgan.

1.3. Fuzuliyning badiiy mahorati.

Mumtoz she'riyat poetikasi vazn va qofiya bilan bir qatorda, badiiy tasvir vositalari uyg'unligida shakllanadi². Fuzuliy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ishlarda uning shoirlik salohiyati, she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham u yoki bu darajada fikr yuritilgan bo'lsa-da, badiiy mahorati maxsus tadqiq etilmagan. Holbuki, SHarq mumtoz she'riyatining qator janrlarida o'z iste'dodini sinab ko'rgan Fuzuliy she'rlari shakl va mazmun jihatidan mukammalligi, badiiy san'atlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Fuzuliy o'z she'rlarining mazmun e'tibori bilan hayotiy, shaklan go'zal va ohangdor, badiiy jihatdan pishiq, ta'sirchan va xalqchil bo'lishiga alohida ahamiyat bergan. SHoir avvalo sun'iylikdan, fikriy soxtalikdan qochadi. Mazmuniy takomilga intilib, ifodaning sodda va tushunarli, ma'noning esa teran va ko'p qirrali bo'lishiga harakat qiladi. Jonli nutqdagi so'z va iboralarni she'rlariga mahorat bilan olib kirib, asarlari tili va uslubining xalqchilligini ta'minlaydi.

Fuzuliy ijodida u yoki bu badiiy san'atdan xoli, shunchaki ifodalangan baytlar yo'q hisobi. Bu uning adabiyotning asl mohiyati va vazifasini chuqur tushunganligi va o'z ijodida adabiy-estetik talablarga rioya qilganligidan dalolat beradi.

SHoir she'r zavqini har narsadan baland qo'yadi. CHiroyli, ta'sirchan so'zdan zavqlana bilishni, go'zal tashbihu tasvirni his qilishni muhim insoniy fazilat biladi.

SHe'r zavqidan o'lmayan ogoh,

² Qarang: Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi' (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida)forchadan Alibek Rustamov tarjimasini. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981; Ishoqov YO. So'z san'ati so'zligi. - Toshkent: Zarqalam, 2006; Rahmonov V. SHe'r san'atlari. –Toshkent: YOzuvcchi, 2001; Hojiahmedov A. SHe'r san'atlarini bilasizmi ? – Toshkent: SHarq, 2001.

Ahli nazma mazammat aylamasin,—

deb o'quvchiga tanbeh beradi.

She'r uningcha, shunday bir dilbar ma'shuqadirki, husn-malohati go'zal so'z, ifodadir («She'r bir ma'shuqadir, husni iborat zevari»). Lekin bu shunchaki so'z o'yini, jimjimadorlik ham emas. Alisher Navoiy Fuzuliydan 50 yilcha oldin

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,

Bo'lsun aning surati har ne durur.

Nazmki, ma'ni anga marg'ub emas,

Ahli maoniy qoshida xo'b emas,—

deb yozgan edi.

Darhaqiqat, she'rda ham asos ma'nodir, uning shakli-surati ikkinchi darajali. Ma'nodan xoli she'r hech qachon fozillar nazdida e'tibor topgan emas. Fuzuliy bu fikrni davom ettirgandek bo'ladi. Masalan, «Ilmsiz she'r asosi yo'q devor o'lur va asossiz devor g'oyatda bee'tibor o'lur», deb yozadi va «ilmsiz she'r» o'lik tan («qolibi beruh») hisoblab, undan hazar qilishini, shu tufayli umrining ma'lum qismini sarf etib, aqliy va naqliy ilmlarni qunt bilan o'rganganligini qayd etadi. She'rdan maqsad esa, Fuzuliy fikricha, «kayfiyati asrori ishq»ni, «oshiqi bechora holi»ni har kimning o'z mahorati doirasida («tab'i mavzunila») ifoda etmog'adir.

Fuzuliy ishq yoniq ishqdir. U shunday bir ohangki, boshdan oxirigacha faqat avj pardalarda chalinadi. Shunday bir tasvirki, boshdan oxirigacha eng o'tkir ranglar tanlab olingan. Shuning uchun ham bu ishq u bilan tanishgan har qanday o'quvchi qalbini larzaga sola oladi. Mana shoirning mashhur baytlaridan biri:

Mahshar kuni ko'ram deram ul sarvi qomati,

Gar anda ham ko'rinmasa, kel ko'r qiyomati.

Rivoyatga ko'ra, dunyo oxir bo'ladigan so'ngga kunda tamomi ahli olam, ya'ni barcha (hashr) bir joy (mahshar)ga jam bo'ladi. O'liklar ham qo'zg'alib (qiyom) jonlanadilar (bir otning tuyog'i izidan necha ming odam chiqadi). Shoir

bu dunyoda topa olmagan yorni o'sha kuni ko'rmoq umidi bilan yashaydi. Zora o'sha kuni ko'rsa. Agar o'sha kuni ham u ko'rinmasa, qiyomat shundan keyin boshlanadi.

YOki

Bani jondin o'sondirdi, jafodan yor o'sonmazmi?

Falaklar yondi ohimdan, murodim sham'i yonmazmi?

matla'li g'azalini olaylik.

Ma'shuqaning jabru zulmi shoirni jonidan bezdirdi. Jafo qilish ma'shuqa joniga tegmadimikin? SHoir ohidan falaklar yonsa-yu, uning murodi sham'i yonmasa! Mubolag'aning yorqin ifodasi bu.

Kutilmagan timsol (o'sanmoq — bezmoq), manzara (falak va shamning yonishi) va tasvir (ohdan yonishi) muqoyasasi hol va suratga favqulodda rangin va yorqin tus beradi. Ayni paytda so'zlarning sehri, tovushlarning musiqiy ohangi o'ziga mahliyo qilib qo'yadi.

Beixtiyor she'rni o'qishda davom etasiz:

Qamu bemorina jonon davoyi dard etar ehson,

Nechuk qilmaz bango darmon, bani bemor sonmazmi?

Oshiqlar hamisha yorning vafosizligidan shikoyat qilib kelganlar. Avvalo, bu erdagi yorning ham, vafoning ham ma'nosi g'oyat keng. Bu umrning vafosi, dunyoning vafosi, davlatning vafosi va hokazo. Bularning bari bitta maxrajda — Ollohda yaxshi jam bo'ladi. Lekin shoir o'z niyatini naqadar istig'no bilan ifoda etmoqda: hamma bemorlari dardiga darmon topib berayotgan jonon nega uning holiga parvo qilmaydi? Uni kasal hisoblamaydimi? Axir, hijron tunida sham' emas, uning joni yonmoqda, giryon ko'zlaridan yosh o'rniga qon oqmoqda. Uning afg'onidan xalq uxlay olmaydi (afg'onim xalqni uyg'otadi, nahot qora baxtim uyg'onmaydi?!)

Har bir bayt mana shunday kutilmagan, xayolga kelmaydigan qiyoslar bilan yakun topib boradi. Ichki qofiyalar (jonim, giryonim, afg'onim) esa ajib bir ohangdorlik baxsh etadi. SHe'ning so'nggi baytlaridagi engil mutoyiba:

G'amim pinhon dutardim ban, dedilar yora qil ravshan,

Desam, ul bevafo bilman, inonurmi, inonmazmi?

kabi g'azaldagi tuyg'ular ummonida ajib bir muvozanat hosil qiladi.

Fuzuliy SHarq so'z san'atida mashhur, mumtoz shoirlar tomonidan ko'p qo'llangan tashbih, talmih, tazod, istiora, ittifoq, iyhom, savolu javob, husni ta'lil, tansiq us-sifot, laff va nashr, tajohuli orifona, tashxis kabi san'atlardan o'z she'rlarida ayniqsa keng foydalangan. Bu borada asrlardan-asrlarga o'tib kelgan an'analar doirasida ijod qilish bilan birga, yangi, o'ziga xos va favqulodda tashbihlar qo'llagan, she'riy san'atlar qo'llash an'anasini rivojlantirib, ularning qator yangi qirralarini ochgan.

II BOB. FUZULIY VA ADABIY TA'SIR MASALASI

2.1. Fuzuliyning o'zbek adabiyotiga ta'siri

Fuzuliy ijodi turkiy xalqlar adabiyoti taraqqiyotiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, o'zbek she'riyatida undan ilhom olmagan biror shoirni topish qiyin. Uning nomi buyuk Navoiy nomi bilan hamisha yonma-yon kelgan. Haqiqatan ham, Fuzuliy devoni asrlar osha Navoiyniki bilan bir qatorda maktab-madrasalarda o'qitib kelingan. El orasida «Fuzuliyxonlik» davralari bo'lgan. SHoirlarimiz uning g'azallariga yuzlab, minglab muxammaslar bog'laganlar. Xattotlarimiz uning kitoblarini qayta-qayta ko'chirganlar.

“XVIII asr oxiri – XIX asr avvali o'zbek adabiyotiga eng ko'p ta'sir qilgan, binobarin, o'z asarlari bilan bu davr adabiyoti taraqqiyotida juda katta rol o'ynagan shoirlardan biri ulug' ozarbayjonlik Fuzuliydir, - deb yozadi V.Zohidov. – Bu ajoyib so'z ustasining, ayniqsa, tili, uslubi, muhabbat kuylari deyarli hamma shoirlar ijodida chuqur iz qoldiradi. “Kima”, “holima”, “xoram”, “etmaz”, “o'lmisham”, “dushdim”, “no'la”, “ver”, “cho'x” va hokazolar qator o'zbek

shoiri irodiga bevosita o'shal ustoddan kirib keladi. Fuzuliy she'rlariga muxammaslar yoziladi"³. Chunki "Fuzuliy turkiy g'azal uslubini kamolot cho'qqisiga ko'targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g'azallari ravon va musiqiyligi, o'ynoqiligi bilan, go'zal tashbehlarga boyliigi bilan ko'ngillarni band etadi⁴. Ogahiy ham ozarbayjon xalqining genial shoiri Fuzuliy irodiga ham chuqur hurmat bilan qaragan, uning qator g'azallariga muxammas bog'lagan. Fuzuliy g'azallariga nazira — o'xshatma tariqasida ozarbayjon tilida ayrim g'azallar yozgan. Ogahiyning Fuzuliy g'azallariga bog'lagan muxammaslarida uning Fuzuliyga bir ustoz sifatida qaraganligi seziladi. Ogahiy muxammas bog'lash uchun g'azal tanlaganda Fuzuliyning chuqur ijtimoiy mazmunli g'azallarini oladi.

Bir misol:

*Jahon ahli na bilsun, Ogahiy, mehru vafo qadrin,
Bilurmu shaparaklar shom aro nuru ziyo qadrin,
Ne tong, gar bilmasa bedardlar zavqu davo qadrin,
Asiri nafsdur ahli jahon bilmaz fano qadrin,
Fuzuliy, ishq atvori sanga anjoq musallamdur.*

Biz yuqorida Ogahiyning nafs bandasi bo'lish, tamagirlikka inson erkini bo'g'uvchi xulq-atvor sifatida qaraganini aytgan edik. Keltirilgan muxammasda shoir o'shanday fikrlarini go'yo Fuzuliy yordamida yana bir marta tasdiqlab olmoqchi bo'ladi, o'z g'oyalarini targ'ib etishda Fuzuliy obro'yidan foydalanadi. Ogahiyning Fuzuliy irodiga murojaat qilishiga, unga muxammas bog'lashiga sabab ana shu g'oya, maqsad birligidir. Yana bir misol:

³ Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. — Toshkent: O'zadabiynashr, 1961. — B. 194-195.

⁴ Vohidov E. SHoiru she'ru shuur (Adabiy o'yalar). — Toshkent: YOsh gvardiya, 1987. — B. 102.

Bu bog' ichra gul oso har kishikim sof botindur,
Visolin gulshanining rohati naqdig'a xozindur,
Tamomi orzudin Ogahiydek tinchu emindur,
Fuzuliy, xasta dil to ravzai ko'yingda sokindur,
Tamannoyi bihishtu mayli gulzori eram qilmaz.

Ikkala shoir satrlarining ma'no, shakl jihatidan birlashib ketganligi ravshan. Bunda shoirlar o'zlarining inson orzusi, baxt-saodati kuychisi ekanliklarini bayon qiladi. Y A n a:

Davron aro, asru ko'p erur sho'xi diloru,
Siymınbaru gul purxamu qomati zebo,
Ochsang nazaringni agar aylarga tamosho,
YAxshi ko'rinur surati mahvashlaring, ammo
YAxshi nazar etdukcha saranjomi yomondur...
Xo'blarda agar har nechakim husnu ado vor,
YUz oncha alarda sitamu javru jafo vor,
Bas, Ogahiy, aqlu xirad bo'lsa sango vor,
Gar desa Fuzuliyki, go'zallarda vafo vor,
Oldanmaki, shoir so'zi albatta yolondur.

Fuzuliy g'azalida asosiy mavzu sevgi bo'lib, shoir sevgi olamida mehru vafo yo'qligidan shikoyat qiladi. G'azalda sevgi vafo-sadoqat bilan bog'liqligi, sevish uchun tashqi ko'rinishgina etarli emasligi, sevgida tuyg'udan tashqari bevosita aqlning ishtiroki muhimligi uqtiriladi. Bu asosiy

fikr keltirilgan ikki bandda Ogahiy misralari yordamida yanada ravshanlashgan, kengaytirilgan. Birinchi banddan Fuzuliy «mahvashlarning surati» yaxshi ko'rsada, oqibati yomon bo'lishi mumkin, deb ogohlantirsa, Ogahiy: dunyoda go'zal, «sho'xi dilorom» ko'p, ammo ularning hammasiga berilib ke-tishdan oldin oqibatini o'ylash kerak, deb Fuzuliy fikrini yakunlaydi. Muxammasning oxirgi bandida Ogahiyning ustaligi, ayniqsa, seziladi. Fuzuliyda oxirgi bayt shoirning o'zi bilan o'zi o'rtasida so'z o'yini tarzida tuzilgan; Fuzuliyning o'zi: Fuzuliy, go'zallarda vafo bor, desa aldanma, shoir so'zi yolg'on, deydi. Ogahiy esa: xo'blar (go'zallar) qanchalik go'zal bo'lsa, ularda jabr ham shunchalik ko'p bo'ladi, agar aqling bo'lsa, Fuzuliy, ularda vafo bor, desa ishonma, chunki shoirning so'zi yolg'on, deydi, SHu tariqa bu erda ham so'z o'yini ruhi saqlanadi. Fuzuliy g'azali xotimasida so'z o'yini orqali sevgi uchun vafo, sadoqat zarurligini ta'kidlamochi, so'z o'yini bu erda san'at namunasi, Ogahiy o'z qo'shimchasida mana shu ruhni to'la saqlab qoladi.

2.2. Fuzuliy va Qo'qon adabiy muhiti

SHarq she'riyati, shu jumladan, O'rga Osiyo xalqlari poeziyasi o'tmish klassik adabiyotning barakali ta'siri ostida takomil topgandir. Xoh O'rta Osiyoda, xoh Eronda, xoh Hindistonda bo'lsin biror shoir ulug' sharq klassiklari Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy va boshqa mashhur so'z ustalarining maktabini o'tmay turib she'riyat maydoniga chiqmagan. Har bir ko'zga ko'ringan shoir ijodining kamolga etishuvida bu ustozlar ijodini samarali ta'siri ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. SHuning bilan birga har bir shoir u ustozlardan she'riyat ta'limini olar ekan, o'z ijodiy intilishlariga ko'ra yana ularning har biriga alohida ixlos qo'ydi. SHu sababli ayrim shoirlar ijodida sharq klassik shoirlaridan birortasining ta'siri boshqalardan ko'ra to'laroq va aniqroq sezilib turadi. Bu hol XVSH-XIX asrlarda yashagan va ijod etgan

Qo'qonlik shoirlar ijodida ham ko'zga tashlanadi. "XIX asrning birinchi yarmida tatabbu'navislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo'qonda edi"⁵. Fuzuliy g'azallariga deyarli barcha shoirlar tatabbu' yozganlar. Lekin tatabbu'navislik she'riyatni mavzu jihatidan bir qadar cheklab qo'ysa-da, o'z mahoratlarini namoyish etish uchun shoirlarga muayyan imkoniyat ham yaratdi. Sadriddin Ayniyning yozishicha, aslida muayyan g'azalga uning radifini saqlagan holda tatabbu' yozish oson emas. Chunki bu borada ilk g'azalni yozgan shoirga birmuncha oson: u o'zi topgan ma'noni ifodalash uchun xohlagan radifga murojaat qilishi mumkin. Tatabbu'navis shoirlar esa ayni radifda yangi ma'nolarni ifodalashlari, tatabbu' bog'lanayotgan g'azal mazmunini kengaytirishlari va rivojlantirishlari taqozo qilinadiki, bu har qanday ijodkordan alohida iste'dod talab etadi⁶. "Chunki tatabbu' ijodiy bellashuvdir. Zero, tatabbu'navislik an'ana, yangilik va mahorat uchligi bilan bog'liq faoliyatdir"⁷. Qo'qonlik shoirlar Fuzuliyning "kerakmazmu sango", "cho'x", "tut", «o'ldi o'xshaydur", "do'ndurmish", "do'ndurdi", "bengzatdim" radifli g'azallariga badiiy yuksak tatabbu'lar yozgan. Jumladan, Qo'qon adabiy muhitining tashkilotchisi va homiysi shoh va shoir Umarxon Amiriy ijodi mashhur Ozarbayjon shoiri Fuzuliy she'rlarining qattiq ta'siri ostida rivoj topganini ko'rsatish mumkin. U Fuzuliy g'azallariga bir necha tatabbu' yozadi, taxmislar bog'laydi. "bengzatdim", "ayduqcha", "cho'x", "topan", "bo'lan", "chekan", "o'lan", "qilan", "vor", "ko'ran", "kezdigidur", "sinduran", "sonur", "yo'x", "do'ndurmish", "verub", "edan", "vermish", "verdi", "o'sonmaydur", "verancha", "dun", "dushdi", "o'sondim", "sonuram", "o'kush" kabi fuzuliyona so'zlarni g'azallari matniga olib kiradi. Xususan, "cho'x", "do'ndurmish" radifli g'azallar bitadi.

G'am ilojin may etar – aydi Fuzuliy ham Amir,

⁵ Fayzulloev B. O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari (XVII- XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida): Filol. fan. nomz....diss. avt. -Toshkent, 2002. -B.17.

⁶ Sadriddin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. - Moskva, 1926. - S.197.

⁷ Fayzulloev B. O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari (XVII- XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida): Filol. fan. nomz....diss. avt. -Toshkent: O'zRFATAI, 2002. -B.9.

*Ey asiri domi g'am, bir go'shai mayxona tut*⁸, -
kabi baytlarida salafi fikrini tasdiqlaydi va rivojlantiradi.

Aslida shoirning mazkur g'azali ham buyuk salafining:

Ey asiri domi g'am, bir go'shai mayxona tut,
*Tutma zuhhoding muxolif pandini, paymona tut*⁹, -

matla'i bilan boshlanadigan g'azali ta'sirida yozilgan. Lekin Amiriy qofiya va radifda Fuzuliyga ergashsa-da, g'azalda bevosita uning fikrlarini davom ettirmagan. Balki ishq mavzuida alohida, o'ziga xos g'azal yaratgan. CHunki baytma-bayt solishtirilganda ular orasida yaqinlik, umumiylik yo'qligini ko'ramiz. Xatto g'azalning matla'ida ham muayyan tafovutlar ko'zga tashlanadi:

Ey xarobi chashmi maxmuring ko'ngul, paymona tut,
Bir qadah la'ling zakotidin berib, mastona tut

G'azalning quyidagi bayti esa Fuzuliydan ko'ra, Navoiyni yodga soladi:

Ortturur har lahza nosih pand ila g'aflat menga,
El aro andog'ki, uyqu boisin afsona tut

CHunki "G'aroyib us-sig'ar"da shunga o'xshash baytga duch kelamiz:

Ko'zima ul vajhdin dermen yuzung afsonasin –
*Kim, sevarlar uyqusizlar doimo afsonani*¹⁰.

Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslaridan birida ham Amiriy Fuzuliyning tilga olib o'tadi:

Fuzuliy birla Lutfiy ofarindin aylamas tamkin... Fuzuliyning:
G'amzasin sevding, go'ngil, joning gerakmazmu sango?
*Tig'a urding, jismi uryoning gerakmazmu sango?*¹¹ -

matla'li g'azali Amiriyda:

Xat chiqarding, la'li xandoning kerakmazmu sango?

⁸ Amiriy. Qoshing'ga teguzmagil qalamni. (G'azallar). Toshkent: SHarq, 2008.

⁹ Fuzuliy. Devon. - Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. - B. 46.

¹⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. G'aroyib us-sig'ar. 20 tomlik. T. 3. – Toshkent: Fan, 1988. - B. 461.

¹¹ Fuzuliy. Devon. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. - B. 27.

Xizra verding, obi hayvoning kerakmazmu sango?)

tarzida munosib shakl va mazmunda ifoda etilgan. G'azalda Amiriy Fuzuliy yo'lidan borib, lirik qahramonning ichki kechinmalari, uning ruhiy holatini atroflicha badiiy bayon etganligi ko'rinib turadi. "Etma cho'x" radifli g'azali mazmun va shaklda Fuzuliy g'azaliga juda yaqin. Amiriyning g'azallaridagi kabi tab'i muxammas va musaddaslarida ham fuzuliyona ohanglarni sezish mumkin.

Fuzuliyning:

SHifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landin so'r,

Zuloli zavq-shavqin tashnai diydor o'landin so'r¹², -

matla'si bilan boshlanuvchi mashhur g'azaliga ko'plab shoirlarning taxmis bog'laganliklari ma'lum. Amiriy ham katta jur'at bilan unga nihoyatda teran, g'azalning g'oya va mazmunini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi taxmis bog'lagan. Amiriy Fuzuliyning ilk baytidagi tasvirni kengaytiradi, ya'ni visol shifosini (yoki visol shukuhini) hajr orqasidan bemor bo'lishgacha etgan kishidan, sog'inchni esa, diydorga tashna bo'lgan kishidan so'ramoq vojibliyi kayfiyatini to'laroq va kengroq ochadi:

Balo dashtida g'am tog'in meningdek zor o'landin so'r,

Muhabbat ramzini Majnun kibi afgor o'landin so'r,

Mazoqi la'li nobin ishq aro xummor o'landin so'r,

SHifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landin so'r,

Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landin so'r.

Fuzuliy g'azalida ilgari surilgan fikrlar Amiriy muxammasining uchinchi misrasida yanada kengaytirilgan, natijada muxammasdagi har besh misra mazmun jihatidan bir-biriga uzviy bog'langan, go'yo bu muxammasdan biron-bir misra olib tashlansa, to'liq bo'lmay qolayotganday taassurot paydo bo'ladi. Zero, yor vasliga intizorlik, Layli ishqida Majnunday devonavor bo'lish, ma'shuqaning labi lazzatiga xumorlik istagi visol umidida hijrondan bezor, mahbub ilinjida

¹² Fuzuliy. Devon. - Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. - B. 27.

diydortalab bo'lgan oshiq holatini to'ldiradi. Muxammasning navbatdagi bandidagi Fuzuliy aytmoqchi bo'lgan ma'shuqa labining sirini mendan bo'lak kishidan so'rma, chunki, mengina shu aqiq lablar sirini bilaman, mengina uning siridan voqifman, tarzidagi fikrlarni Amiriy quyidagicha to'ldiradi.

Ko'ngul majnuning o'ldi, ishq jurmi birla o'lturma,

Maningdek mubtalodin javr tarkini ravo ko'rma,

Raqibi ro'siyah birla dame o'lturmayu durma,

Labing sirrin gelib guftora, bandin o'zgadin so'rma.

Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landin so'r. Fuzuliy g'azalining uchinchi baytiga bog'langan misralarda Amiriy mahoratining yana bir qirrasini namoyon bo'lgan. Fuzuliy ko'zi yoshli oshiqlarning holidan g'ofil bandalar har vaqt bexabar bo'ladi, chunki oshiq sirlar olamidagi o'z ko'z yoshlarining sababini mardum oldida oshkor etsa, uning oshiqligiga shubha bildiruvchilar topiladi, shu sababli oshiq ko'z yoshlari tunni bedor o'tkazgan va yulduzlar sayridan ogohlar holati yanglig' unga hamdard insonlar uchungina ma'lum, demoqchi. Bu fikrni Amiriy quyidagicha rivojlantiradi: muhabbat aqlga bog'liq ruhiy holat emas. U aqlni o'g'irlaydi. Qachonki kishi ma'shuqa ishqida xuddi Majnun kabi devona bo'lsagina u haqiqiy oshiq hisoblanadi. SHuning uchun men yig'lar ekanman, zohid buni johillikka yo'ymasin, chunki oqil kimsaga Majnun yig'isining mohiyati ayon.

Fuzuliy mahbubaga iltijo qilar ekan, oshiq holatidan xabar olishga undaydi. Va go'zal muqoyasa bu erda shuki, mastlar bedodi hushyor bo'lgandagina bilinadi. Amiriy bu fikrni yanada kengaytirib, ishq sening bu go'zal yuzingni chamanlar ichra izlab orzu etdi, hatto bir gul ishqida bulbul tikonlarni oshyon etganidek, bu orzu yo'lida oshig'ing har narsaga rozi, sen endi g'ururing bilan o'z yurti, oshyonini unutgan mendek oshig'ingni holiga nazar sol, o'zingni bilib-bilmaslikka olma, degan fikrni olg'a suradi:

Tamanno qildi xatti orazingni bu chamanlardin,

Bu gul shavqida bulbul oshyon qildi tikanlardin,

*G'ururi husn ila qilma tag'oful bevatanlardin,
Xabarsiz o'lma fatton ko'zlaring javrin chekanlardin,
Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o'landin so'r (S. -163^b).*

Keyingi ikki badda ham Amiriy Fuzuliy fikrlarini to'ldirib boradi. Bu to'ldirilgan va sharhlangan misralarda Fuzuliy mahoratining qator qirralari namoyon bo'lib borgani kabi, Amiriy ijodidagi o'ziga xos san'atkorlik ham ko'zga tashlanib turadi. Aytish mumkinki, Fuzuliy g'azali zohiran dunyoviy muhabbat tarannumiga bag'ishlanganday ko'rinsa-da, botinan xarobot ahli bo'lgan chin oshiq, so'fiyning ahvoli va uning yaratganga bo'lgan mehri, bandalik majburiyatlarining sharhi sifatida namoyon bo'ladi. Amiriy tomonidan kiritilgan misralar lirik qahramonning ana shu ruhiy holati, komillik yo'lidagi riyozatlarini yanada kengroq va to'laroq ochadi. CHunonchi, Amiriy lirik qahramoni Fuzuliyga juda yaqinlashib, "Malomat toshlari birla ushaldi bu paru bolim", deydi. Aslida ham malomat toshlari solikka otiladi. Solikkina malomat toshlarining ozorlaridan huzur qiladi. Unga qanchalik ko'p jabr-zulm etkazilsa, u shuncha orom topadi. Agar Fuzuliy "Xarobot ahlining ahvolini bir xummor o'landan so'r", deb murojaat etayotgan ekan, o'sha xumor bo'layotgan Amiriyning ham lirik qahramoni bo'lib chiqadi. Muxammasning so'nggi bandi yuqoridagi bandlarda aytilgan fikrlarning xulosasi sifatida jaranglaydi: Fuzuliy ishq, binobarin, ilohiy ishq zavqini qalbida zavqi ishq bor bo'lgan odamdan so'ra, deb hukm chiqarsa, Amiriy uning bu fikrlarini yanada ravojlantiradi va konkretlashtiradi:

*Sabo to qomating sarvini har yon ayladi moyil,
Ko'ngul Majnundek hushu xiradni ayladi zoyil,
Amir ishqimni ko'rgach, Xizr bo'ldi ajziga qoyil,
Muhabbat lazzatidan bexabardur zohidi g'ofil,
Fuzuliy ishq zavqin zavqi ishq vor o'landin so'r.*

Taxmis bilan to'liq tanishgan o'quvchi Fuzuliy salohiyati bilan bellashishga qodir shoirning taxayyulot mevasidan estetik zavq olish barobarida, Amiriyning o'z ijodiy faoliyatida ulug' shoir asarlaridan va yuksak badiiy san'atidan bevosita

bahramand bo'lganligiga yana bir bor iqror bo'ladi. Ayni chog'da, mazkur taxmis Amiriyning Fuzuliy g'azalining mavzu va g'oyasini quruq, behis takrorlamay, batamom yangi asar yarata olganligini ko'rsatadi.

Fuzuliy she'rlaridagi to'lqinlanuvchi kuch, o'ynoqilik, chuqur mazmun va dard o'tining harorati G'oziy she'rlarida ham o'z izini qoldirgan. G'oziy o'z she'rlarining mazmuni bilan ham, dunyoga, atrofidagi muhitga munosabatini ko'rsatishda ham, shuningdek badiiy so'z tizmalarini tuzish va hatto ayrim so'z va ifodalarni ishlatishda ham Fuzuliy yo'li va uslubini qo'lladi, Fuzuliyvor tarannum etishga urindi. Bu hol uning Fuzuliy g'azallariga bog'lagan muxammaslarida, ayniqsa ochiq ko'rinib turadi. Yana shunisi diqqatga sazovorki, G'oziy ijodida Fuzuliydan boshqa shoirning g'azaliga qilingan muxammasi uchramaydi. Mana Fuzuliy g'azaliga G'oziyning bog'lagan bir muxammasidan ayrim parchalarni olib ko'raylik.

*Qaytarur beliga ul qotili barno etakin,
Meni o'lturg'ali qon aylamasun to etakin.
Do'taolmam na qilay jahd ila aslo etakin,
Ila olur kezajak ul guli ra'no etakin,
Vahm anlar duta bir oshiqi shaydo etakin.*

*YUrutib g'ayr ila sog'ari ishrat tun-kun,
Boda tobidin o'lib lola uzori gulgun.
CHIqdi mayxonadin ul sho'x tarabnok bukun,
Deldidim, xoki rah o'ldim etakin dutmak uchun,
Ko'tarur, dushmang'a qo'ymas era ando etakin...*

*Kima dod aylayin ul sho'xki bebok o'ldi,
May ichib g'ayr bila shodu tarabnok o'ldi,
Rashkdin G'oziyi hayratzada g'amnok o'ldi,
Gullar ochildi Fuzuliy yaqalar chok o'ldi,*

Kel dutolum mayu, mahbub ila sahro etakin .

Bu muxammasda shoir badiiy mahoratining Fuzuliy ta'siri ostida takomillashgani, Fuzuliy g'azallarining jozibasidan ta'sir topgani ko'rinib turadi. Zotan biror badiiy asarni sevmay turib, undan ilhomlanmay turib muvaffaqiyatli ravishda unga ergashish mumkin emas. G'oziyning Fuzuliy g'azaliga bog'lagan boshqa bir muxammasidan ham parchalar olib ko'raylik.

*Tor yor kuyina men devona etmisham,
Bir muflisaeki davlati hoqona etmisham,
Bir tashnamanki chashmai hayvona etmisham,
Jonlar verib sening kabi jonona etmisham,
Rahm aylakim etkancha senga jona etmisham...*

*Bildingki charh tolibi aslu nasab degul,
Afg'onu nolishim hama dam besabab degul,
Ko'nglim hamisha moyili zavqu tarab degul,
Jonu dilim murodima etmish adab degul,
Bir bandamki dargahi sultona etmisham...*

Bu muxammas ham yuqorida aytilgan fikrlarimizga qo'shimcha bir dalil bo'ladi. Og'ir azobu-uqubatlardan so'ng yor dargohiga etishganda bo'ladigan sevinchlarni, G'oziy badiiy bo'yoqlar bilan yanada quyuqlashtirib, kengaytirib tasvirlaydi, Fuzuliy tarannum qilgan yordan minnatdorlik va visol sevinchi kuylarini yanada ohangdorroq, yanada jarangliroq etadi. Fuzuliyning ta'siri G'oziyning Fuzuliy g'azallariga bog'lagan muxammaslaridagina emas, boshqa original badiiy asarlarida ham ochiq ko'rinib turadi.

*CHo'x edur javru jaf o dilbari bedodu fanim,
Tarki rahm ayladi go'yo buti paymon shikanim.
Kokili fikrida jon vermisham, ey do'stlar
Tori sunbul bila zinhor tikinglar kafanim.*

*Qonlar yutamen ul guli ruxsordin ayru,
Bag'rim kuya ul sho'x sitamkordin ayru...
Ey xush eli, men telbag'a ko'p sarzanish etmang,
Devonaman ul la'li shakarbordin ayru.
Zulmu, sitamu, javru, jafo jonina kam qil,
Aylar senga G'oziy sitamdida duo cho'x.*

G'oziy ijodiga Fuzuliy faqat badiiy tomondangina ta'sir etib qolmadi, balki Fuzuliyga bo'lgan muxlislik shoir didaktik ta'limotining shakllanishiga ham ancha ta'sir qildi. G'oziy o'zining tarbiyaviy ma'nodagi she'rlarida inson fazilatini yuqori tutishni, hayotda kamtar bo'lish, behuda g'ururdan chetlanish kerakligini ta'kidlaydi. U zorlik va ranjurlikka tushmaslik uchun vafosizlardan uzoqroq turish lozimligini, har qanday tuban shaxslar oldida bo'yin egib o'z fazilatini erga urmaslikni, iqboldan mag'rur bo'lmaslikni "mehnat sharobini", "shohlik sharbatidan ortiq ko'rishni qayta-qayta takrorlaydi.

*Ey quyosh subhi uzoring birla mag'rur o'lmog'il,
Bir nafasda shom o'lur, albatta masrur o'lmog'il.*

*Tingla pandim, ey ko'ngil, bo'lma vafosizlarga yor,
Vora-vora zoru, kundan kunga ranjur o'lmog'il.*

*Masti iqbol o'lma, idbori bila og'ritma bosh
Totmag'il bu bodani zinhor maxmur o'lmog'il.*

*SHam yanglig' mahfil oro bo'yla, kuymakdur ishing
To muyassardir jahon ahlig'a manzur o'lmag'il.*

*Dog'a kuy olmosdin marham vale minnat bila
Mubtaloi dardi bedarmoni kofur o'lmag'il.*

*G'oziyo, no'sh ayla mehnat jomidin zaxrobi g'am
Benavoyi sharbati CHiniyu, fabfur o'lmag'il.*

G'oziy inson qadrini erga urmaslik, o'z qimmatini saqlash zarurligini alohida uqtirib o'tadi:

*O'tdi umrim arzi holim qilmadim fosh oldida,
Arzi hol etgach, zamon o'lg'ay edim kosh oldida.*

*Qon yutib, mehnat chekib g'urbatda o'lgan yaxshiroq,
Benavolik birla yurguncha qarindosh oldida.*

G'oziy ijodiga Fuzuliy ijodining ta'siri shoir asarlariningi til xususiyatlarini o'rganganda, ayniqsa ko'zga yaqqol tashlanib turadi. G'oziy o'z badiiy asarlarida ayrim o'zbek tilida ishlatiladigan so'zlarni Fuzuliy talaffuzida ishlatadi.

*Bir nafas mehr ila dilshod etti ming ag'yorni
Lutf aylab boxmadi, yuz oh, bir ahbobina.*

*Ahbobni g'am o'dina o'rtab
Dushmanlarga subhu shom hamroz.*

*Rahm etib xolini so'r, lutf etib shod eda ko'r,
O'rgulay, G'oziyi motamzadadin aylama or.*

*Ey siym badan, mehr tariqini dut emdi,
Rasmi rahi bedodu jafoni unut emdi.*

G'oziy o'z she'rlarida o'zbek va ozarbayjom tiliga umumiy bo'lgan ba'zi so'zlarni ozarbayjon talaffuzida ishlatish bilan cheklanmay, ozarbayjon tiligagina xos bo'lgan so'zlarni ham ishlatgan. Mana yana bir ikki misol:

Do'pdirab yuz qibladii boqdim qoshin mehrobina,
Bo'yingni jilvasi ko'rdukcha botil bo'ldi g'avg'osi.

Bandamiz G'oziy bu davlatni sulaymonlik bila,
Inonu ixtiyor oldi alimdin bir parizodae.

Xo'blar ruxsorina o'ldukcha hayron ko'nglimi,
Sirri ishqing nula ifsho qilsa ohim olama.

CHo'x adar javru jafo dilbari bedodu fanim,
Alamdin oldi jon naqdini bir sho'xi pari paykar.

G'oziy asarlaridagi ozarbayjon tiliga xos so'z, ifodalarning ishlatilishida shubhasiz buyuk shoir Fuzuliy ijodiga berilgan hissa, shoirning o'z ustoziga muhabbat va ixlosining bir ko'rinishi deb qarash kerak. Yana shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, bu G'oziy ijodiga rang-barang yasan beradi, ularning badiiy jarangini kuchaytiradi, she'rlarining husniga husn qo'shadi, ularni yanada ohangdorroq qiladi. Fuzuliy ijodining ta'siri faqat G'oziy she'rlaridagina emas, balki unga zamondosh bo'lgan boshkd shoirlar ijodida ham sezilarli iz qoldirgandir.

Xullas, Fuzuliy Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlariga eng ko'p ta'sir ko'rsatgan shoir sanaladi. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, G'oziy, Ado, Xon kabi bu muhit vakillari Fuzuliy an'analarini mahorat bilan davom ettirdilar, uni ohorli timsolu tashbihlar bilan boyitdilar. SHaklan go'zal, mazmunan rang-barang, badiiy barkamol asarlari bilan sharq adabiyotimini rivojlantirdilar.

XULOSA

Ma'lumki, adabiyot — insonshunoslik degan fikr juda keng tarqalgan. Aslida ham, haqiqiy adabiyot inson taqdiridan bahs yuritib, inson xarakteri, fikru tuyg'ularini tasvirlash orqali kitobxonga saboq beradi hamda yashash, kurash, komillik martabalariga ko'tarilish sirlarini o'rgatadi. Lekin masalaga chuqurroq razm soladigan bo'lsak, adabiyot, eng avvalo, ruhshunoslik va ko'ngilshunoslik deyishga tug'ri keladi. Chunki ruh va ko'ngil tasvirlariga chuqur e'tibor qaratmagan adabiyot uzoq yashay olmaydi. Shuning uchun dunyodagi qaysi ulug' san'atkor ijodiyotiga nazar tashlamang, u ruh va ko'ngil sirlarini kashf aylash orqali zo'r ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritganligiga guvoh bo'lish mumkin. Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy xuddi shunday daho san'atkorlardan. Ulug' shoirning xar bir asari insonparvar va hassos inson ko'nglining hol va haqiqat ifodalaridir. Bu ko'ngilda olam va odam ishq, hayot zavqi, yashash shavqi, tabiat va go'zallik muhabbati teran tomir otgan.

Fuzuliy g'azallarida axloq ma'rifat, ma'naviyat, ijtimoiy borliq masalalariga bog'lanib ketadi. Bu esa, eng avvalo, ylug' shoirning shaxsiy his-tuyg'ular olami bilan yaqindan tanishishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, inson atalmish buyuk mavjudotning ma'naviy-ruhiy qudratini mukammal idrok etishga keng yul ochadi.

Badiiy ijod tajribasidan juda yaxshi ma'lumki, har bir milliy adabiyot o'zining vaqt va zamon sinovlaridan o'tgan mustahkam va ustuvor adabiy an'analarga egadir. Bu ijodiy an'analar esa unga o'zining asl qiyofasini yuqotmaslik va hamisha taraqqiy topib borishiga imkon ochadi.

Fuzuliy g'azallari takomilini an'anaviy badiiy tasvir vositalari bilan yanada go'zallashtirgan. Ulug' shoir g'azallarida g'oyaga mos obraz tanlab, ma'no, tuyg'y va tasvirning uyg'unligiga erishgan. Tashbeh, tamsil, tashxis, mubolag'a, tazod kabi she'riy san'atlar orqali she'rning mazmun-mohiyatini, hissiy-ruhiy nufuzini takrorlanmas rang va ohanglarda ko'rsata olgan.

Xullas, Fuzuliy o'z ijodi orqali inson qalb dunyosi, ruhiy olami, qismati, mohiyat va haqiqatlaridan keng bahs yuritgan. Uning ijodi keyingi davr ijodkorlari, xususan, Munis, Ogahiy, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, G'oziy, Xon, Furqat, Muqimiy kabi mumtoz shoirlarimizdan tortib E.Vohidov, J.Kamol, G.Saidg'ani kabi shoirlar she'riyatiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Fuzuliyning xizmatlari natijasida bu borada turkiy she'riyatda ijodiy an'ana davom etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -Toshkent: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Alohida nashrlar, monografiyalar, darsliklar:

1. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari: Maqolalar. - Toshkent: Adabiyot va san'at , 1995.
2. Abdullaev V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. - Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati (2 kitob). – Xo'jand: Rahim Jalil nomidagi nashriyot, 2002.
4. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati. – Xo'jand: Rahim Jalil nomidagi nashriyot, 1997.
5. Abdurauf Fitrat. Adabiyot qoidalari.-Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Abdurauf Fitrat. XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash // Tanlangan asarlar. 2-jild. Ilmiy asarlar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
7. Adabiyot nazariyasi. 1 tom. - Toshkent: Fan, 1978.
8. Adabiyot nazariyasi. 2 tom. - Toshkent: Fan, 1979.
9. Atoulloh Husayniy, Badoyi' u-s-sanoyi' (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida). Forschadan A. Rustamov tarjimasini. - Toshkent: Adabiyot va san'at , 1981.
10. Boboev T. She'r ilmi ta'limi. - Toshkent: O'qituvchi, 1996..
11. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri (Adabiy-ilmiy maqolalar). - Toshkent: Adolat, 2004.
12. Erkinov S. Asrlar osha mushoira. -Toshkent: Fan, 1977.
13. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. -Toshkent: Yosh gvardiya, 1990.
14. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. -Toshkent: Adabiyot va san'at.

15. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. -Toshkent: SHarq, 1996.
16. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. - Toshkent: Zarqalam, 2006.
17. Jumaxo'ja N. Satrlar silsilasidagi sehr (Alisher Navoiy g'azallari asosida). - Toshkent: O'qituvchi, 1996.
18. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -Toshkent: Yozuvchi, 1996.
19. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. -Toshkent: Adabiyot va san'at, O'zbekiston, 1999.
20. Navoiyga armug'on (To'plam). III kitob. -Toshkent: Xalq merosi, 2003.
21. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 4-jild (XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmi). - Toshkent: Fan, 1978.
22. Qayyumiy P. Tazkirai Qayyumiy. Uch jilddan iborat. 1-jild. Toshkent, 1998.
23. Qayumov A.P. Qo'qon adabiy muhiti. -Toshkent: O'zfanakadnashr, 1961.
24. Qobilova Z. Amiriy she'riyati. – Toshkent: Fan, 2010
25. Rahmonov V. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati.- Toshkent:Adabiyot va san'at, 1979.
26. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati.- Toshkent:Adabiyot va san'at, 1979.
27. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 1993..
28. Valixonov A. G'azal nafosati. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1985.
29. Vohidov E. SHoiru she'ru shuur (Adabiy o'ylar). - Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
30. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. -Toshkent: O'zadnashr,1961.
31. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. -Toshkent: O'zadnashr, 1970.
32. Fuzuliy. Devon. –Toshkent: Badiiy adabiyot,1959.
33. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. –Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968.